

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKADAN TA'LIM BERISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sherboboyev Xurshid Baxtiyorovich

Buxoro Davlat Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21337856>

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Informatika ta'limining pedagogik-metodik mohiyati, uning boshqa fanlardan farqli xususiyatlari, o'quv jarayonini tashkil etishning didaktik tamoyillari yoritilgan. Maqolada informatika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, o'quvchilarda algoritmik va mantiqiy tafakkurni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, informatika ta'limi mazmunini tanlash tamoyillari, o'quv dasturlarining tuzilishi va ularning davlat ta'lim standartlariga muvofiqligi masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari informatika o'qituvchilari, metodistlar va ta'lim sohasi mutaxassislari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: informatika, umumta'lim maktabi, ta'lim nazariyasi, didaktik tamoyillar, o'qitish metodikasi, algoritmik tafakkur, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv dasturi, pedagogik texnologiya, davlat ta'lim standarti.

Jahon ta'lim makonida umumiy o'rta ta'lim tizimini raqamli transformatsiya jarayonlariga mos ravishda modernizatsiyalash, o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda ta'lim mazmunini raqamli muhit talablariga uyg'unlashtirish muhim pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. UNESCO tomonidan 2002-yilda o'tkazilgan "First International Congress on Media Education" anjumanida ham media va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgani mazkur yo'nalishning xalqaro miqyosdagi dolzarbligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, umumta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini metodologik yondashuvlar asosida o'qitish muammosi zamonaviy pedagogika fanining muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanish darajasini ifodalovchi ICT Development Index ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar tajribasi informatika ta'limini an'anaviy bilim berish shakllari bilan cheklab bo'lmashligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan informatika o'qitishda metodologik yondashuvlarning yetarli darajada tizimlashtirilmagani, uslubiy-didaktik ta'minotning kompetensiyaviy talablar bilan to'liq uyg'unlashmagani hamda o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini baholash mexanizmlarining yetarlicha takomillashmagani muammo sifatida ko'zga tashlanmoqda.

Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish jarayonini tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarni tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik tizimni ishlab chiqish zarur.

Respublikamizda ham ta'lim sifatini oshirish, umumiy o'rta ta'limni xalqaro baholash mezonlariga mos rivojlantirish, o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha chuqur islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli

Farmoni bilan “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” qabul qilindi. Mazkur Farmonda maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq maktab ta’limi tizimida qo’shimcha 1,2 million o’quvchi o’rni yaratish, 2026-yilga qadar o’quv dasturlari va darsliklarni ilg’or xorijiy tajriba asosida to’la qayta ko’rib chiqib, amalda joriy etish, maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarni bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish maqsad qilingan.

Mazkur Farmonning “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan IV-bobning 41-45-maqсадlarida maktab ta’limi tizimini modernizatsiya qilish hamda ta’lim oluvchida ijodiy fikrlash, ko’nikma va motivatsiyani yanada takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim usullari va texnologiyalaridan foydalanishga o’tishni ta’minlash, muammolarni aniqlash va shakllantirish, ularni hal etishga qaratilgan yangi bilimlarni yaratish, axborotni qidirish va qayta ishlash, mustaqil va jamoaviy ish hamda innovatsion faoliyatning boshqa vakolatlari ko’rsatib berilgan. Shu munosabat bilan, eng yaxshi jahon amaliyotlariga asoslangan metodik modelni ishlab chiqish va joriy etish ta’lim tizimining ustuvor vazifasidir.

O’zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari, inson huquqlari, ta’limning gumanistik mohiyati, har kimning bilim olishga bo’lgan konstitutsiyaviy huquqlarining kafolatlanishi, ta’lim olishdan teng huquqlilikdan foydalanishga tayanadi [1].

Ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari etib quyidagilar belgilangan: ta’lim sohasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining kafolatlanishi; ta’lim olishda tenglik, shu jumladan, rivojlanishida maxsus psixofizik xususiyatlari bo’lgan shaxslarga, ularning sog’lig’i va bilim qobiliyatlariga muvofiq, asosiy ta’limning barcha darajalarida va qo’shimcha ta’lim olishda shart-sharoitlar yaratish; shaxsning ta’limga bo’lgan ehtiyojlarini, shuningdek shaxsni shakllantirishda, malakali kadrlarni tayyorlashda jamiyat va davlatning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlari; sifat, qulaylik, shaxsga yo’naltirilganlik, mazmun, ta’lim dasturlari va ta’lim yo’nalishlarining turli-tumanligi va hokazo [2].

O’qituvchining shaxsi – bu pedagogik tizim sifatida ta’lim jarayonining birinchi tashkiliy qismi. Pedagog ishida muvaffaqiyat ko’p jihatdan aynan uning fuqarolik va professional yo’nalishi, professional sifatlarining shakllanganlik darajasiga bog’liq.

Yillar davomida pedagoglar o’quvchilarning bilim, ko’nikma va mahoratlarini aniqlash, rasmiy mantiq, ijtimoiy holat va o’qishning tarkibiga munosabatiga bo’lgan talablarni hisobga olib, ularning psixolog-pedagogik mohiyati ustida ish olib borishgan va buni hanuzgacha davom ettirishmoqda, bu tushunchalarning nisbati to’g’risidagi masalalar ishlab chiqilgan. Bu ishlarning natijasini biz ko’plab olimlarning ishlarida ko’ramiz.

Ta’limning turli bosqichlarida o’quvchilarga axborot madaniyatini rivojlantirish hamda informatika va axborot texnologiyalarini qo’llash sohasida o’quvchilarni tayyorlash tizimi komponentlarini yoki alohida aspektlarini ishlab chiqishga yo’naltirilgan bir qancha pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Hayitov A. G’. Umumiy o’rta ta’limda informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o’qitishni kompyuterlashtirish nazariyasi va amaliyoti: red. fan. dok. ... diss. – T., 2006. – 244 b.

2. Ishmuxamedov R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari (2 kitob). – T.: TDRU, 2009. – 108 b.
3. Ivanov V.L. Struktura elektronnoy ushebnika // Informatika i obrazovaniye. 2001. №6.
4. Jo'rayev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010. – B. 87;